




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

No1 - 2024 ISSN: 3060-5024



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Tahrir hay'ati a'zolari

Gordeyev Sergey Nikolayevich,

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, dotsent

Abdullayev Bekmurod Tojimirzayevich, Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Nazarmuhamedov Davron Abidovich, Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Azim Shuhrat Obid o'g'li, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sharafutdinov Alisher Ozodovich, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

Ismailov Isamiddin, yuridik fanlar doktori, professor

Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna, yuridik fanlar doktori, professor

Adilkariyev Xojimurod Toxtamurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich, yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich, yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich, yuridik fanlar doktori, professor

Ganiyev Shersod Alisherovich, yuridik fanlar doktori, dotsent

Safarov Djahongir Ismoilovich, yuridik fanlar doktori, dotsent

Kaxarova Munira Maxamadjanovna, siyosiy fanlar doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Bosh muharrir

Yarov Bekmamat Alikulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

MUNDARIJA

Bobojonov P.R., Maqsadimiz – jinoyatchilikning barvaqt oldini olish	3
Abdullayev B.T., Ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari	5
Nazarmuxamedov D.A., Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari va muassasalarining o'zaro hamkorligi	9
Berdialiyev B.E., Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq etish faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	14

KRIMINOLOGIK TAHLIL

Rustambayev M.X., Korrupsiyaga oid jinoyatlar: sabablari va sodir etish sharoitlarining ilmiy-nazariy asoslari	19
Adilkariyev X.T., Murodov A.Sh., Oilada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi	25
Ziyodullayev M.Z., Shaharlarda sodir etilayotgan o'zgaralar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi: tahlil, muammo va yechim	31
Axrarov B.D., Narimov I.Sh., Iqtisodiy korrupsiya jinoyatlarining ayrim jihatlarini va sodir etilishiga sabab bo'ladigan omillar	37
Ganiyev Sh.A., O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning ayrim o'ziga xos kriminologik jihatlarini	40
Ismailov E.R., Tazetdinova D.V., On some reasons and factors of criminalization of minors	45
Kutbitdinov G'X., Milliy qonunchilik hujjatlaridagi Jinoyatlarning sabab va omillarini aniqlashga qaratilgan normalar tahlili	49
Kattaqulov M.Q., Voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining sabab va sharoitlari: kriminologik tahlil	55
Mirzatillayev U.I., Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tahlili	60

KRIMINOLOGIK TADQIQOT

Tulaganova G.Z., Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishning nazariy va amaliy-huquqiy masalalari	64
Xujakulov S.B., O'zbekistonda kriminologiyani rivojlanishi, bugungi holati va istiqbollari	68
Achilov A.T., Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar sodir etilishining sabablari, unga imkon berayotgan shart-sharoitlar va oldini olish choralari	76
Tazetdinov R.R., Organizational and legal measures to counter the spread of terrorism	80
Ashurova N.O'., Voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning kriminologik jihatlarini	84
Primkulova F.A., O'zbekistonda oilaviy kriminologiya va uning ahamiyati	89
Рахманов Д.К., Профилактика киберпреступности: нынешнее состояние и перспективы развития (на основе изучения национального и зарубежного законодательства)	93

Tahririyat manzili:

100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243

Tel.: +998 (71) 231-39-77

Elektron pochta: info@uzkti.uz

Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2024 yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yhatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Kengashi muhokamasidan o'tgan.

2024-yil dekabr oyidan ilk marotaba nashr etila boshlagan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Rasulova Dildora Abdumalikovna

Texnik dizayn

Original-maket O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik
markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman
ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston
Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining
«Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan
olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar,
ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar
rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq
qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi
va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 26.0.

Adadi 300 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida
chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 27.12.2024

Buyurtma № 24/1

MUNDARIJA

Исаев С.А. , Криминологическая характеристика преступлений, связанных с незаконным оборотом пиротехнических изделий	102
Gulyamov Q.D. , Xavfsiz turizmni ta'minlashning kriminologik muammolari	109
A'loxonov M. A. , Zamonaviy kriminologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari	113

HAMKORLIK

Kuldashev N.A. , Kriminologiya va fuqarolik huquqi	120
Djoldasova S. Toxsabinov J. Jinoyatchilikning oldini olishda ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligi istiqbollari	124
Yuldashev M. , Jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatining o'рни va ahamiyati	131
Якубов А.С., Азим Ш.О. , Международное сотрудничество - необходимое условие эффективности обеспечения кибербезопасности на национальном уровне	136

XORIJIY TAJRIBA

Абдурасулова К.Р., Буранова Р.Е. , Передовой опыт криминологического прогнозирования преступности в мировой криминологии	143
Alimov M.I. , Kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda jinoyatchilikni jilovlashda xorijiy mamlakatlar tajribasi	151
Таджиев А.А. , Особенности использования международного опыта в алгоритме предупреждения преступлений против общественного порядка	154
Oblakulov D.O. , Sportdagi korrupsiyaga (poraxo'rlikka) qarshi kurash va uning uchun javobgarlik bo'yicha xorij tajribasi	159
Davranov X.B. , Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha AQSh tajribasi	166

ILMIY IZLANISHLAR

Zakirova A.G., Amonova L. , Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo ijrosini o'tayotgan mahkumlarda kriminogen motivatsiya shakllanishining oldini olish choralari	170
Ollamov Ya.Yo. , Korrupsiyaga nisbatan falsafiy, tarixiy va huquqiy yondashuvlarning ba'zi jihatlarini	178
Муминов Н.Г., Ерназаров С.Е. , Особенности развития строительной отрасли на современном этапе экономических реформ: теневой аспект	185
Xoshimov S.Z., Davranov X.B. , Aktivlarni deklaratsiya qilishning korrupsiyaga qarshi kurashdagi muhimligi	193

KRIMINOLOGIYA FANI FIDOYILARI

Zaripov Z.S., Karaketov Yu.M. Usmonaliyev M.	197
Abdurasulova Q.R., Ismailov I.	198

ANJUMANLAR. TADBIRLAR. TAQDIMOTLAR

Jahon kriminologiyasining ilg'or tajribalari. Birinchi xalqaro forum	199
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya Kengashining birinchi yig'ilishi	202

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYANING HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

A'loxonov Muhammadmirzoxon Adhamxon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy kriminologik bilimlar va tadqiqotlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish borasida mamlakatimiz va dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni haqida fikr-mulohazalar bildirilgan, shuningdek, progressiv taraqqiyot bosqichida kompleks bilimlardan foydalangan holda jinoyatchilikni ilmiy jihatdan o'rganish orqali kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslantirilgan ta'rif, taklif, tavsiyalar ishlab chiqish orqali tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: kriminologik faoliyat, kriminologik bilimlar, zamonaviy kriminologiya, jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilish, jinoyatchilik omillari, ilmiy tahlil, ilmiy prognoz va diagnoz.

Abstract. The article presents opinions on the role of modern criminological knowledge and research in combating and preventing crime in our country and the world community, as well as the specific features of ensuring the stability of the criminogenic situation through the scientific study of crime using complex knowledge at the stage of progressive development, by developing scientifically substantiated definitions, proposals, and recommendations.

Keywords: criminological activity, criminological knowledge, modern criminology, scientific research of crime, crime factors, scientific analysis, scientific forecast and diagnosis in tourism, their causes, and preventive measures.

Dunyo miqyosida jinoyatchilikning umumiy tushunchasi va ko'rinishi asta-sekin shakllangan bo'lib, ko'pgina kriminolog olimlar o'z tadqiqotlarida jinoyatchilik, jinoyat sodir etgan shaxs, jinoyat sodir etish sabablari kabi mavzularga alohida to'xtalganlar. Jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun uni bilish va anglash, tushunish zarur bo'lgani sababli, ushbu muammo bilan shug'ullanish zarurati hamda uning hosilasi sifatida "kriminologiya" fani yuzaga keldi.

Kriminologiya o'z maqsadiga ko'ra, jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatlar profilaktikasining mohiyati, xususiyati va qonuniyatlarini o'rganish, jinoyatchilikning alohida turlari hamda yo'nalishlariga kriminologik tavsif berish, jinoyatlar profilaktikasi samaradorligini oshirish choralarini ishlab chiqish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotini ilmiy taklif va tavsiyalar bilan ta'minlovchi ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi. Kriminologik bilimlarning zarurligi shundaki, ular nafaqat huquqbuzarliklar profilaktikasi, balki, umumiy ma'noda, jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti subyektlarining faoliyatida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi [1].

Jinoyatchilikni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish o'ziga xos ijtimoiy-huquqiy yondashuvni talab etadi. Jinoyatchilik ijtimoiy hayotdagi mavjud yashash qoidalarining, jamiyat qonunchiligida qayd etilgan talablarning buzilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham jinoyatchilikni ilmiy-nazariy jihatdan bilish, amaliy jihatdan uni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishga zamin yaratadi. Shuningdek, jinoyatchilikni nazariy jihatdan tahlil etish davlatning huquqni muhofaza qilish hamda huquq-tartibotini amalga oshirish faoliyatini to'g'ri yo'nalishda tashkil etish va shu orqali jamiyat a'zolarining huquqlarini ta'minlashning eng ma'qul yo'llarini belgilash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Jamiyat taraqqiyotida, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishda fan-texnika yutuqlarini rad etish, ushbu muammoga yuzaki qarash ish samarasining hamda kuch va vositalarni qo'llash unumining kamayishiga olib kelishini unutmaslik darkor [2].

Kriminologiya fani oldida nafaqat jinoyatchilikning ayrim muammolari, balki uning sabablari, profilaktika subyektlarining tizimi, ularning vazifalari hamda ta'sir ko'rsatish chora-

tadbirlariga doir nuqtayi nazarlarni yangilash va asoslash kabi metodologik xususiyatga ega bo'lgan muhim vazifalar yuzaga kelmoqda, o'tish davrida iqtisodiyot sohasidagi g'ayri-ijtimoiy hodisalarning turli omillarini aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarurati tug'ilmoqda. Havo, suv, o'rmon va yer resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi, aholining sog'lig'i va yashash qobiliyatini saqlash sohalarida ekologik jinoyatchilik sabablari hamda uning oldini olishning kriminologik tahlili muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, jinoyatlarning sodir etilishiga ta'sir ko'rsatayotgan kompleks omillarni ilmiy yondashuv asosida aniqlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi so'nggi yillarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va ularning omillarini o'rganish borasidagi kamchiliklarning ko'payishiga olib keldi.

Respublikamiz jinoyatchilik tendensiyasida so'nggi besh yilda firibgarlik, o'g'irlik, qasddan badanga shikast yetkazish, giyohvandlik moddalarini qonunga xilof aylanmasi va kiber-jinoyatlar salmog'i sezilardi darajada yuqori bo'lgan bo'lsa-da, ularning sabablari kompleks ilmiy tadqiq etilmaganligi mazkur muammoning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. Jinoyatchilikni kompleks tahlil qilishning yillar davomidagi an'anaviy shakli yaqin, o'rta va uzoq muddatda uning yangi turlari yuzaga kelishini ilmiy prognoz qilish imkonini bermagan, shuningdek, jinoyatlarning sabablarini aniqlash va bartaraf etish faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt joriy etilmagan.

Bugungi kunda jinoyat oqibatlarini bilan kurashishni emas, balki jinoyatchilikning asl sabablarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish orqali barvaqt oldini olishni ustuvor maqsadga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, respublikada kuzatilayotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnoz qilish, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etilishiga yo'naltirish mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarida va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini tashkil etish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo'yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda jinoyatlarning omillarini o'z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini oshirish maqsadida Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-10-son Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilib, uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilandi [3].

Unga ko'ra, respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillari – uning sodir etilishiga imkon bergan omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash, hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralariining samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalariga asoslangan holda, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralariini ishlab chiqish, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil etish, jamoatchilik o'rtasida shov-shuvga sabab bo'lgan jinoyatlarning omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralariini ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko'maklashish, jahon krimi-nologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligining ilg'or tajribalarini doimiy o'rganish hamda uning natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitlarida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, kriminologiya sohasi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Mazkur muassasa bevosita xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish asosida tashkil etildi. Jumladan, Avstraliya, AQSH, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Kanada, Koreya, Latviya, Niderlandiya, Ozarbayjon, Rossiya, Tailand, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarda jinoyat omillarini ilmiy o'rganishga ixtisoslashtirilgan kriminologiya institutlari faoliyati o'rganildi.

Xususan, AQSH va Yaponiyadagi ilmiy tashkilotlarda jinoyat omillari va jinoyatchining shaxsiyati sun'iy intellekt texnologiyasi yordamida tahlil etilib, ilmiy prognoz qilinadi va shu asosda zudlik bilan zarur boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi. Buyuk Britaniya Kriminologiya institutida mulkiy, zo'ravonlik, shahvoniy va ekstremizmga oid jinoyatlar omillarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan markazlar tashkil etilgan. Koreya Respublikasi Kriminologiya va adolat instituti kiberjinoyatlar va jinoyatchilikning boshqa xavfli turlarining sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha politsiya organlari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Ozarbayjon Sud ekspertizasi, kriminalistika va kriminologiya muammolari ilmiy-tadqiqot instituti tarkibidagi 14 maxsus markaz tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari uchun asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Umuman, xorijiy davlatlarda kriminologiya institutlarining tadqiqotlarini amaliyotga joriy qilish, jinoyatlarning asosiy omillarini aniqlash va barvaqt bartaraf etish orqali jinoyatchilik ko'rsatkichini o'rtacha 35-55 foizgacha kamaytirishga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish faoliyatini ilmiy tadqiq qilishga ixtisoslashtirilgan Markaziy Osiyodagi yagona hamda kriminologik tadqiqotlar o'tkazish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishning kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatlarga ega zamonaviy ilmiy tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz rahbarining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-22-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda, O'zbekiston Respub-

likasi Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi", 2024 – 2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari, kriminologiya sohasida tashabbus va buyurtma asosidagi ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish sxemasi, Kriminologiya tadqiqot institutida bajarilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha ilmiy nashrlarni davriy ravishda chop etish sxemasi tasdiqlandi [4].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 445-son qarori bilan Kriminologiya instituti faoliyatining asosiy yo'nalishlari, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, institut faoliyatini tashkil etish, mulki va moliyaviy mablag'lari, xodim va xizmatchilarining ilmiy faoliyatini baholash tartibi, kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish metodikasi, kriminologiya sohasida dissertatsiya tadqiqotlari bajarilishini tashkil etish, kriminologiya sohasida tashabbus va buyurtma asosidagi ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish, institutning ilmiy takliflari bo'yicha huquq-buzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar tomonidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga oid zarur qoidalar belgilandi [5].

Mazkur kompleks chora-tadbirlar mamlakatimizda kriminologiya sohasi, xususan, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish faoliyatini tom ma'noda yangi davrga, zamonaviy kriminologiyaning muhim taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda, zamonaviy kriminologiya haqida fikr bildirishni joiz deb bildik. Ayrim manbalarda, zamonaviy kriminologiya ma'lum odamlarni boshqalarga qaraganda ko'proq jinoyat sodir etishga majbur qiladigan psixologik va sotsiologik ta'sirlarni chuqurroq o'rganishga intiluvchi fan tarmog'i ekanligi haqida fikr yuritiladi [6].

Boshqa manbalarda esa, zamonaviy kriminologiya jinoyatchilar va jinoyat xulq-atvorni o'rganuvchi, faktlarni aniqlash, tahlil qilish, texnik va boshqaruv rejasi maqsadlarini yaratish hamda ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun loyihalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladigan fan sifatida e'tirof etilishi ma'lum bo'ldi [7].

Fikrimizcha, mazkur ta'riflar muayyan darajada zamonaviy kriminologiyaning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Shu sababli, ilmiy izlanish, xorijiy va milliy kriminologik manbalarni tahlil qilishimiz davomida zamonaviy kriminologiya tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik. Mazkur ilmiy ishlanmamizning xulosa qismida zamonaviy kriminologiya tushunchasiga mualliflik ta'rifini beramiz.

Bugungi kunda kriminologiya muhim ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar natijasida shakllangan tez rivojlanayotgan dunyoda harakat qilmoqda. Ushbu transformatsiya an'anaviy kriminologik tuzilmalarni shubha ostiga qo'yadi va jinoyatlarning oldini olishda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardagi chuqur o'zgarishlar, texnologik yutuqlar va yangilashlarning madaniy xilma-xilligi kriminologiya uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu o'zgarishlar kriminologiyadan jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda dolzarb va samarali chora-tadbirlar, ayniqsa zamonaviy bilimlar asosida moslashishni talab qiladi.

Zamonaviy kriminologiya aksiologik (normativ) va ontologik (sotsiologik) yondashuvlarning yaqinlashishi bilan tavsiflanadi hamda sinergetik g'oyalar va fanlararo bilimlar prinsipining integratsiyalashuvi davrida yangi paradigmalar sifatida paydo bo'lib, jinoyatlarning sabablari va oldini olish bo'yicha innovatsion istiqbollarga erishishni o'z oldiga muhim vazifa sifatida qo'yadi. Ko'plab mamlakatlardagi kriminologiya tarmog'i boshqa jinoiy-huquqiy fanlar bilan solishtirganda faqatgina cheklangan tadqiqot faoliyati bilan bog'liq bo'lib, innovatsion bilimlarning globallashuvi jarayoni rivojlanish inqirozini boshidan kechirmoqda. Bu esa mazkur fanni ilmiy, huquqiy, uslubiy takomillashtirishga hamda kriminologik tadqiqotlarga davlat munosabatini o'zgartirishga turtki bermoqda.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, kriminologiyaning kelajagi sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi va biotexnologiya kabi texnologiyalar integratsiyasi orqali shakllanadi. Ushbu innovatsiyalar jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali usullarni shakllantiradi, jinoyatlarni o'rganish va ularni kamaytirishda yangicha vositalarni taklif etadi.

Shunday usullar orqali, bundan tashqari yangi nazariy paradigmalar, metodologiyalar va texnologik yutuqlarni o'zlashtirish orqali kriminologiya tobora murakkablashib borayotgan dunyoda jinoyatchilik va uning oldini olish bo'yicha ilg'or va muhim bo'lgan tadqiqot natijalarini taqdim etishda davom etishi mumkin.

Murakkab jinoyatchilik muammolarini hal qilish uchun fanlararo bilimlar va xalqaro qo'shma kriminologik tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yangi kriminologik maktablarning paydo bo'lishi, neokriminologiya, raqamli kriminologiya va neyrokriminologiya kabi yangi yondashuvlar paydo bo'lib, zamonaviy jinoiy tahdidlar va ularning ijtimoiy ta'sirini bartaraf etish zarurligini aks ettirmoqda. Mazkur jarayonlar esa kriminologiyaning muhim instituti hisoblangan kriminologik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi zarur.

Kriminologik tadqiqotlar raqamlashtirish, metodologik yutuqlar, siyosat hamda boshqaruv sohalaridagi o'zgarishlar tufayli tobora shakllanmoqda. Ushbu tendensiyalar jinoyatchilikning yangi shakllariga va jamiyatdagi o'zgarishlarga kengroq moslashish zarurligini taqozo etadi, fanlararo yondashuvlar va innovatsion metodologiyalarning muhimligini ta'kidlaydi. Kriminologiya rivojlanishda davom etar ekan, u jinoyat va huquq-tartibot sohasining kelajakdagi muammolarini samarali hal qilish uchun ushbu tendensiyalarni birlashtirishi kerak.

Aynan ushbu davrda, ya'ni insonlar o'rnini robotlar, g'oyalar o'rnini texnikalar, xodimlar ishini sun'iy intellekt texnologiyalari egallashni boshlagan, jinoyatchilikni aniqlash va oldini olish imkonini sezilarli darajada kamaytirishga hissa qo'shayotgan raqamli texnologiyalar davrida mamlakatimizda zamonaviy kriminologiya sohasiga ixtisoslashtirilgan muassasani tashkil etilganligi juda muhim va zarur qadam bo'ldi.

Bu borada Kriminologiya tadqiqot instituti jinoyatchilik tendensiyalarini ilmiy metodlar orqali kompleks aniqlash, tizimlashtirish va uning salbiy tendensiyalarini bartaraf etish b, jinoyatchilik omillarini ilmiy metodlar orqali kompleks aniqlash, tizimlashtirish va ularni bartaraf etish, kriminologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, kriminologik faoliyat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, aholining e'tiroziga sabab bo'layotgan ijtimoiy

taranglik holatlarining yuzaga kelish omillarini tizimli tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqish, kriminologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish hamda ilmiy ishlanmalarni kriminologik faoliyat amaliyotiga joriy etish, shuningdek, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish, kriminologiya sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni samarali tashkil etish, shuningdek, qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, yaqin, o'rta va uzoq muddatda jinoyatchilik tendensiyalarida kuzatilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ilmiy metodlar asosida prognoz qilish kabi muhim vazifalarni tizimli va muntazam amalga oshirish orqali mamlakatimizni jinoyatchilik ko'rsatkichi past darajada bo'lgan davlatlar qatoriga kirishiga o'zining katta hissasini qo'shadi.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy tahlillarimiz, tadqiqotlarimiz, xorijiy va milliy kriminologik ilmiy, o'quv va uslubiy adabiyotlarni o'rganish natijalari, shuningdek, mamlakatimiz kriminologik tizimini yanada rivojlantirish, milliy kriminologiyani ilg'or xorijiy tajribalar asosida yanada rivojlantirish maqsadida bir qator ilmiy ta'rif, tasnif va ilmiy takliflar ishlab chiqdik.

I. O'zbekiston kriminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirish bo'yicha quyidagi ilmiy ta'riflar ishlab chiqildi.

1) zamonaviy kriminologiya – progressiv ilm-fan taraqqiyoti davrida jinoyatchilikka qarshi kurashish, transchegaraviy va transmilliy jinoyatlar, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishning yangicha ko'rinishlari, uyushgan jinoyatchilik, kiber-jinoyatlar hamda barcha turdagi jinoyatlarning raqamli ko'rinishlarini ilg'or tajribalar va bilimlar hamda zamonaviy texnologiyalardan maqsadli foydalanish orqali ilmiy jihatdan aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui.

2) kriminologik faoliyat – jamoat xavfsizligi tarmog'ining mustaqil sohasi (faoliyati turi) bo'lib, jamiyat manfaatlarini jinoyatchilikning barcha salbiy tendensiyalari va omillariga doir tahdidlardan muhofaza qilishga qaratilgan

kompleks chora-tadbirlar tizimi. Kriminologik faoliyatning maqsadi jamiyat manfaatlarini jinoyatchilikka doir tahdidlardan muhofaza qilish orqali shaxs-jamiyat-davlatning demokratik qadriyatlarini hamda ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

II. O'zbekiston kriminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirish bo'yicha quyidagi ilmiy tasniflar ishlab chiqildi.

1) mamlakatimiz hududida kriminologiya fanining bugungi kungacha bo'lgan shakllanish va rivojlanish jarayonlarni tahlil qilish asosida milliy kriminologiyani quyidagi uch bosqichga ajratishni lozim: 1-bosqich – "Sovet kriminologiyasi", 2-bosqich – "O'zbekiston kriminologiyasi", 3-bosqich – Yangi O'zbekiston zamonaviy kriminologiyasi";

2) kompleks jinoyatchilik tendensiyalarini, mazmun-mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqib, quyidagilardan tashkil topgan degan xulosaga keldik: jinoyatchilik holati, jinoyatchilik tuzilishi, jinoyatchilik darajasi, jinoyatchilik geografiyasi.

3) jinoyatchilikning kompleks omillarini quyidagi turkumlarga ajratish orqali tasniflash maqsadga muvofiq: jinoyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy, tashkiliy, madaniy omillar.

III. O'zbekiston kriminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirish bo'yicha quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

1) kriminologiya va huquqbuzarliklar profilaktikasi fanlari bo'yicha maqsadlarning o'zaro umumiyligi, mavzular doirasi, fan tarmog'ining obyekti va predmeti, amalga oshiriladigan tadqiqotlar hamda chora-tadbirlarning nisbatan o'xshashligini inobatga olib, Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro'yxatining yuridik fanlar tarmog'i-da "12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash. Probatsiya faoliyati" ixtisosligidan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi"ni chiqarish hamda uning ixtisoslik pasportidagi zarur qoidalarni "12.00.15 – Kriminologiya" ixtisosligiga kiritish orqali yagona "12.00.15 – Kriminologiya" ixtisosligi asosida ilmiy faoliyat olib borish maqsadga muvofiq;

2) kriminologiya sohasini ayrim turdagi maxsus bilimlarga ega oliy ma'lumotli kadrlar bilan jamlash hamda kriminologiya ixtisosligi bo'yicha ilmiy daraja beriladigan fan tarmoqlarini yanada rivojlantirish maqsadida, kriminologiyaning ixtisoslik predmetiga – geografiya,

biologiya, penologiya, siyosatshunoslik kabi tarmoqlarni kiritish maqsadga muvofiq;

3) kompleks tadqiqotlar o'tkazish orqali kriminologiyaning zamonaviy huquqiy institutlarini yaratish va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tarmoqlarining Umumhuquqiy klassifikatoriga kiritish;

4) rivojlangan xorijiy ilmiy va ta'lim tashkilotlarining ilg'or tajribasidan foydalangan holda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi milliy tashkilotlarimizda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning aniq belgilanganligi, tizimli tahlil va ish samaradorligini progressiv oshirishga qaratilgan, uning tashkil etilishidan ko'zlangan asosiy natijani namoyon qilishga xizmat qiladigan – asosiy ilmiy missiyasini hamda u asosida faoliyat yuritish tartibini belgilash lozim.

5) bevosita kriminologik faoliyat bilan shug'ullanuvchi xorijiy hamda milliy ilmiy va oliy ta'lim muassasalari xodimlari o'rtasida zamonaviy progressiv raqobat muhitini yaratish maqsadida "The best international criminologist" (Eng yaxshi xalqaro kriminolog), "The best young criminologist" (Eng yaxshi yosh kriminolog tadqiqotchi) tanlovlari o'tkazish;

6) oliy ta'lim muassasalarining yuridik fanlar mutaxassisligida tahsil olayotgan talabakursantlar o'rtasida Kriminologiya tadqiqot instituti, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tegishli mutasaddi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda har yili "Kriminologiya fani"dan fan olimpiadasini tizimli yo'lga qo'yish hamda olimpiada g'oliblarni rag'batlantirish choralari ko'rish kerak. Shuningdek, g'oliblarga kriminologiya sohasida buyurtma va tashabbus asosidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarda stajyor-tadqiqotchi sifatida ishtirok etish imkoniyatini berish har tomonlama o'zining ijobiy natijasini beradi;

7) kriminologiya sohasida xorijiy ilmiy va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro strategik fundamental ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi sifatida xalqaro Internet sayti sifatida "Jahon kriminologiya kutubxonasi" xalqaro ma'lumotlar bazasini yaratish zarur. Bu xorijiy mamlakatlar bilan doimiy ravishda ilmiy manbalar bilan o'zaro hamkorlik qilish jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi;

8) kriminologik tadqiqotlar o'tkazish jarayonini yanada sifatli hamda samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-

son qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Kriminologiya sohasida tashabbus asosidagi ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish sxemasi"ning 2-bosqichiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashabbus asosidagi ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish hamda keyingi bosqichga tavsiya etish jarayoni qo'shish, o'ylaymizki o'zining ijobiy natijasini beradi;

9) oliy ma'lumotli yuridik kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari o'quv rejasiga "O'zbekiston kriminologiyasi" yoki "Milliy kriminologiya"fanini kiritish asosida kelajak avlodda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha puxta nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirishga erishish lozim;

10) yuridik (shu jumladan, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy (shu jumladan, harbiy, harbiylashtirilgan) ta'lim muassasalarida amaldagi shtat birliklarini maqbullashtirish hisobidan "Kriminologiya kafedrası" faoliyatini yo'lga qo'yish;

11) yuridik (shu jumladan, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy (shu jumladan, harbiy, harbiylashtirilgan) ta'lim muassasalarida kriminologiya fanini O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya kengashi tomonidan tasdiqlangan (tavsiya etilgan) o'quv dasturi va darslik bo'yicha yagona yondashuv asosida o'qitilishini yo'lga qo'yish;

12) 2030-yilga qadar tuman (shahar)lar ichki ishlar organlarida bevosita jinoyat omillarini kompleks ilmiy tahlil qilish va prognoz qilish bilan shug'ullanuvchi kriminolog lavozimini kiritish (tahlil bilan shug'ullanuvchi shtatlarni maqbullashtirish hisobidan amaldagi pul ta'minoti doirasida). Tuman (shahar)lar ichki ishlar organlari kriminologlari zimmasiga barcha tashkilot, muassasa va korxonalarda aniq predmetli kriminologik va viktimologik tushuntirish-ogohlantirish tadbirlarini amalga oshirish vazifasini yuklash;

13) Kriminologiya tadqiqot instituti tuzilmasida bosqichma-bosqich Kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ofisi, Raqamli kriminologiya ofisi tarkibiy bo'linmalarni tashkil etish.

O'ylaymizki, tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan ilmiy taklif, tasnif va asoslantirilgan takliflarimiz milliy kriminologiyani zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishga,

jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishga, zamonaviy kriminologiyani ilg'or g'oyalarni mamlakatimizda joriy etishga o'zining ijobiy hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya: Darslik / Q.R.Abdurasulova, A.G. Zakirova, I. Ismailov va boshqalar – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 318 b.).
2. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov; mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PF–10-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PQ–22-son qarori.
5. . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 445-son qarori.
6. (Criminology Definition and History / ThoughtCo magazine / Humanities / Issues / <https://www.thoughtco.com/the-history-of-criminology-part-1-974579>).
7. Modern criminology factors / article / "The Lawyers & Jurists" / <https://www.lawyersnjurists.com/article/modern-criminology-factors>.

